

O'zbekiston Respublikasi  
ISHLAB CHIQILGAN Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

"Toshkent iqtisodiyoti va savdo universiteti" milliy tadqiqot universiteti

TAHRIR QILINGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 09 oy 19 kuni 439 - sonli buyruqi bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:


O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

**70722702 – Aerokosmik texnologiyalar va barqaror rivojlanish  
(tarmoqlar va sohalar bo'yicha)  
magistratura mutaxassisligining malaka talablari**

Ma'don Malaka talablari "Oliy ta'lim davlat ta'lim standartlari, Avvalgi qo'shalar", "Oliy ta'lim sohalar ta'lim standartlari, Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatsiyasi", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka davlati (tarmoqlari) kadrlari standartlari va kadrlar tayyorgarliklari talablariga asoslangan ishlab chiqilgan va rasmiy ravj yozilgan hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot, Moliya va Savdo vazirligi rasmiy chop qilish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan.

Toshkent-2023



## **IShLAB ChIQILGAN:**

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti.

## **TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil «29»  
29 dagi 438 - sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

## **JORIY ETILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta‘lim davlat ta‘lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta‘lim davlat ta‘lim standarti. Oliy ta‘lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me‘yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

1.	<i>70722702-Aerokosmik texnologiyalar va barqaror rivojlanish (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) mutaxassisligining umumiy tavsifi.....</i>	4
1.1.	Qo'llanish sohasi.....	4
1.1.1.	<i>70722702-Aerokosmik texnologiyalar va barqaror rivojlanish (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) mutaxassisligi malaka talabining qo'llanishi.....</i>	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	<i>70722702-Aerokosmik texnologiyalar va barqaror rivojlanish (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) mutaxassisligi kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....</i>	4
1.2.1.	<i>70722702-Aerokosmik texnologiyalar va barqaror rivojlanish (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) mutaxassisligi kasbiy faoliyatining sohalari.....</i>	4
1.2.2.	<i>70722702-Aerokosmik texnologiyalar va barqaror rivojlanish (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatining ob'ektlari.....</i>	5
1.2.3.	<i>70722702-Aerokosmik texnologiyalar va barqaror rivojlanish (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) mutaxassisligi bo'yicha kasbiy faoliyatlarining turlari.....</i>	5
1.2.4.	<i>70722702-Aerokosmik texnologiyalar va barqaror rivojlanish (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) mutaxassisligi bo'yicha kasbiy vazifalari.....</i>	5
2.	<i>70722702-Aerokosmik texnologiyalar va barqaror rivojlanish (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) mutaxassisligi bo'yicha magistrarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.....</i>	6
2.1.	Umumiy kompetensiyalar.....	6
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar.....	7
2.3.	Umumiy va kasbiy kompetensiyalar egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.....	7
2.4.	Kvalifikatsiya.....	8
	Bibliografik ma'lumotlar.....	9
	Kelishuv varag'i.....	10

# **1. 70722702 – Aerokosmik texnologiyalar va barqaror rivojlanish (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) magistratura mutaxassisligining umumiy tavsifi**

**70722702 – Aerokosmik texnologiyalar va barqaror rivojlanish (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)** magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining me'yoriy muddati 2 yil.

Xalqaro qo'shma yoki ikki tomonlama diplom berish magistratura ta'lim dasturlari doirasida o'qish jarayoni tashkil etilgan holda, bir yil O'zbekistonda, bir yil xorijiy nufuzli profil universitetda va dissertatsiyani yakunlash, himoya qilish uchun qo'shimcha vaqt talab qiladi. Ta'lim jarayoni asosan ingliz tilida olib boriladi.

## **1.1. Qo'llanish sohasi**

**1.1.1. 70722702 – Aerokosmik texnologiyalar va barqaror rivojlanish (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) magistratura mutaxassisligi malaka talabining qo'llanilishi.**

Malaka talabi **70722702 – Aerokosmik texnologiyalar va barqaror rivojlanish (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)** magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

### **1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

- mazkur magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor- o'qituvchilari;

- magistratura mutaxassisligining o'quv rejasi va o'quv dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalari;

- magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

- oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

- oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan bakalavriat bitiruvchilari va boshqa manfaatdor shaxslar.

**1.2. 70722702 – Aerokosmik texnologiyalar va barqaror rivojlanish (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi**

**1.2.1. 70722702 – Aerokosmik texnologiyalar va barqaror rivojlanish (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalarini.**

**70722702 – Aerokosmik texnologiyalar va barqaror rivojlanish (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)** – "Muhandislik ishi" ta'lim sohasidagi mutaxassislik bo'lib, quyidagi kasbiy faoliyatlarining sohalarini kamrab oladi: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Kosmik tadqiqotlar va texnologiyalar agentligi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Gidrometeorologiya xizmati markazi, O'zbekiston Respublikasi ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi va ularning tasarrufidagi tashkilotlari, O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi, O'zbekiston Respublikasi Milliy geografik axborot tizimi, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va suv xo'jaligi bo'yicha tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari, O'zbekiston Respublikasi Davlat boshqaruvi organlari va atrof muhit muhofazasi sohasining xar hil turlarini ishlab chiquvchi va ulardan foydalanuvchi, hamda xalqaro tashkilot va institutlar.

**1.2.2. 70722702 – Aerokosmik texnologiyalar va barqaror rivojlanish (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari:**

- O'zbekkosmos agentligi;
- Milliy geografik axborot tizimi;
- Davlat boshqaruv organlari;
- Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tizimi korxonalari, muassasalari va tashkilotlari;
- Suv xo'jaligi vazirligi tizimi korxonalari, muassasalari va tashkilotlari;
- Qishloq xo'jaligi vazirligi tizimi korxonalari, muassasalari va tashkilotlari;
- Gidrometeorologiya xizmati markazi korxonalari, muassasalari va tashkilotlari;
- Davlat ekologik ekspertizasi;
- Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi;
- oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o'qitish;
- sohaga tegishli jamoat birlashmalari va nodavlat notijorat tashkilotlari;
- mulkchilik shaklidan qat'iy nazar turli hil shakldagi mulk, sanoat va biznes tashkilotlar majmui.

**1.2.3. 70722702 – Aerokosmik texnologiyalar va barqaror rivojlanish (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:**

- ilmiy tadqiqot faoliyati;
- pedagogik faoliyat;
- loyihaviy-konstruktorlik-texnologik faoliyati;
- tashkiliy-boshqaruv faoliyati;
- ishlab chiqarish va konsalting xizmat ko'rsatish faoliyati.

**1.2.4. 70722702 – Aerokosmik texnologiyalar va barqaror rivojlanish (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) mutaxassisligi bo'yicha magistrning kasbiy vazifalari:**

**70722702 – Aerokosmik texnologiyalar va barqaror rivojlanish (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) mutaxassisligi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalar, ob'ektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bolishi lozim:**

**Ilmiy tadbirkorlik va pedagogik faoliyatida:**

- ilmiy, amaliy tadqiqotlarni o'tkazish, tajriba natijalarini tahlil qilish va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy yangiliklarni kashf etish;
- ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishda aerokosmik texnologiyalar, masofadan zondlash va geoaxborot tizimlari uslublaridan foydalanish, ularni baholash, muhofaza qilish bilan bog'liq tadbirlarda qatnashish;
- eksperimental - loyihaviy tadqiqotlarni o'tkazishda na'munaviy metodikalar va texnik vositalar hamda qurilmalarni qo'llay olish;
- masofadan zondlash uslublaridan foydalanish, kosmik texnologiyalar sohasidagi maxsus adabiyotlar, ilmiy texnikaviy ma'lumotlar, xorijiy davlatlar va respublikamizda erishilayotgan fan, texnika va texnologiya sohasidagi yutuqlarni o'rganish;
- ilmiy maqolalar, ma'ruzalar, risola, o'quv adabiyotlar tayyorlash va tahrir qilish, o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;
- ilmiy adabiyotlar va internet tarmog'ida eng yangi ilmiy, konstruktorlik, texnologik va ekspluatatsion yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;
- ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish hamda faol ishtirok etish;
- mos mutaxassislik mavzusi bo'yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish;

- oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida mutaxassisligi bo'yicha pedagogik va o'quv-uslubiy faoliyat yuritish;
- o'quv jarayonini va ilmiy faoliyatni tashkil qilish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan, o'qitishning texnik vositalaridan foydalanib o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;
- elektron (e-learning), mobil (m-learning), masofaviy axborot texnologiya va o'quv - metodik majmualarni mukammal o'zlashtirish;
- pedagogik va ilmiy mahorati hamda malakasini muntazam oshirib borish.

#### **Loyihaviy-qidiruv konstruktorlik faoliyatida:**

- ilmiy va loyihaviy-konstruktorlik-texnologik faoliyat muammolarini chuqur tahlil qilish, masalalarni qo'yish va asoslash qobiliyatiga ega bo'lish;
- loyihalarni boshqarish, ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish, favqulotda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni tahlil qilish, loyiha komandasini boshqarish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- aerokosmik texnologiyalar sohasida xalqaro tajribaga asoslangan holda ilmiy-amaliy loyihalar biznes-rejalarini ishlab chiqish va optimallashtirish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

#### **Tashkiliy-boshqaruv hamda ishlab chiqarish va konsalting xizmat ko'rsatish faoliyatida:**

- ishlab chiqarishni hamda konsalting xizmati ko'rsatishni tashkil etish va boshqarish;
- tashkilot, korxonalar va ularning alohida bo'linmalar tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish;
- xo'jalik yurituvchi sub'ekt barqaror rivojlanishda ekologiya va atrof muhit muhofazasi faoliyatini rejalashtirish, hisob-kitob va tahlil qilish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar, huquqiy hamda me'yoriy - huquqiy hujjatlar;
- reja, hisob-kitob hujjatlarini yuritish, yangi texnika va texnologiyalarni joriy etish, aerokosmik texnologiyalar sohasida ratsionalizatorlik takliflar va ixtirolar bo'yicha iqtisodiy samaradorlikni aniqlash;
- loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish, ekologiya va atrof muhit muhofazasini ta'minlash, bajarilayotgan nazariy va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tatbiq etish;
- mutaxassislik bo'yicha aerokosmik texnologiyalar, barqaror rivojlanishda atrof muhit muhofazasi, qishloq va suv xo'jaligi sohalarida mavjud holatning tahliliy sharhini ishlab chiqish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

## **2. 70722702 – Aerokosmik texnologiyalar va barqaror rivojlanish (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) mutaxassisligi bo'yicha magistrnlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar**

### **2.1 Umumiy kompetensiyalar:**

- ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo'lishi, umummetodologik fanlar asosi, aerokosmik texnologiyalar sohasidagi muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, ilmiy tadqiqot va pedagogika metodologiyasini bilishi va kasbiy faoliyati davomida undan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilishi;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;
- o'zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko'rib chiqish va tahlil qilishi, ulardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;
- o'z faoliyatida me'yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalana olishi, o'zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;

- internet tarmog'idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalariga ega bo'lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

- axborot texnologiyalaridan foydalana olishi, axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot texnologiyalarining mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xuruji xavfi va tahdidlarni anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish qobiliyatiga ega bo'lishi.

## 2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish, ilmiy loyixalarni ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

- statistika usullari bilan ma'lumotlarni tahlil qilishga, statistik metodlar asosida olingan natijalarni interpretatsiya qilishi va o'rinligini tekshirishiga ega bo'lishi;

- tadqiqot jarayonini tavsiflash, konseptual va texnikaviy ilmiy dasturlarni ishlab chiqish, xulosalarni ta'riflash va olingan natijalarni baholash, empirik va nazariy tadqiqot usullarini farqlash, kengaytirilgan tadqiqot rejasini ishlab chiqish, fundamental, amaliy, innovatsion loyihalarni tushunish qobiliyatiga ega bo'lishi;

- pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishni bilishi;

- ilmiy amaliy faoliyati natijalari bo'yicha respublikada va xorijda davlat, nodavlat tashkilotlari e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malaka va ko'nikmalariga ega bo'lishi;

- aqlli "o'z-o'zini nazorat qilish, tahlil qilish va hisobot berish texnologiya"lar mamlakatni barqaror rivojlanishni ta'minlash, "yashil rangga o'tish" va Yer sayyorasini hamda energiya xarajatlarining tejash loyixalarni ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- internet anjomlari, sun'iy intellekt va aerokosmik texnologiyalarini tarmoqlar va sohalarda barqaror rivojlanishni ta'minlash bo'yicha global innovatsiyalarning keyingi bosqichiga o'tish texnologiyalardan foydalanishni bilishi;

- ma'lumotlar namunalarini tahlil qilish va xulosalar chiqarish uchun algoritmlar va statistik modellar yordamida aniq ko'rsatmalarga rioya qilishni o'rganish va moslashishga qodir bo'lgan kompyuter tizimlaridan foydalanish va rivojlantirishga ega bo'lishi.

## 2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Magistrlar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketma-ketligida kiritiladi **majburiy va tanlov** fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlari- magistratura mutaxassisligi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Tanlov fanlari – mutaxassisligi doirosida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabanning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustaxkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratilgan.

2.3.1. 70722702 – Aerokosmik texnologiyalar va barqaror rivojlanish (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) magistratura mutaxassisligi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar:

O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	900	30
Tanlov fanlar	900	30
Ilmiy faoliyat	1800	60

2.3.2. 70722702 – Aerokosmik texnologiyalar va barqaror rivojlanish (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) magistratura mutaxassisligi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestr
1.00		<b>Majburiy fanlar</b>	<b>960</b>	<b>30</b>	
1.01	AIT-51106	Atrof-muhit fanlarida ilmiy tadqiqot metodologiyasi	180	6	1
1.02	GAT-51106	Geoaxborot tizimlari	180	6	1,2
1.03	ATE-51106	Aerokosmik texnologiyalar	180	6	1,2
1.04	MOG-51106	Barqaror rivojlanish	180	6	1,2
1.05	YeZO-51106	Yerni zondlash	180	6	3
2.00		<b>Tanlov fanlar</b>	<b>900</b>	<b>30</b>	
2.00		<i>Tanlov fanlar (15 ta fan)</i>	900	30	1,2,3
		<b>Jami</b>	<b>1800</b>	<b>60</b>	
		<b>Ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash</b>	960	42	1,2,3
		<b>Ilmiy pedagogik ish va ilmiy seminar</b>	180	6	1,2,3
		<b>Ilmiy amaliyot (stajirovka)</b>	360	12	3
		<b>Jami</b>	<b>1800</b>	<b>60</b>	
		<b>HAMMASI</b>	<b>3600</b>	<b>120</b>	

2.1. **Kvalifikatsiya:** Aerokosmik texnologiyalar va barqaror rivojlanish (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)



## Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

### Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yunalishi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat jabhasi, magistraturaning asosiy ta'lim dasturi (magistratura dasturi), aerokosmik texnologiyalar va barqaror rivojlanish, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish, suv ob'ektlarini muhofaza qilish hududlari, suvni ifloslantiruvchi manbalar, tuproqni ifloslantiruvchi manbalar, havoni ifloslantiruvchi manbalar, resurs tejamkortexnologiyalarni qishloq va suv xo'jaligida qo'llash, chiqindilarni kamaytirish, ekologik muammolarni geoaxborot tizimlarida tahlil qilish, masofadan atrof muhitni ifloslantiruvchi manbalarni o'rganish.